



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil 29 fevral

BUYRUQ № 19

Toshkent sh.

**Shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyatini tanlanma
statistika kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
tartibni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qaroriga muvofiq, shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyatini tanlanma statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, hududlarda amalga oshirilayotgan tashish faoliyatining hajmlari to'g'risidagi statistika ma'lumotlarning sifatini yanada oshirish maqsadida, **buyuraman:**

1. "Shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyatini tanlanma statistika kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tartib" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 28- dekabrda "Shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyatini tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi 51-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiritilsin.

Direktor

B. Begalov